SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA TIBBIY KADRLAR TAYYORLASHDAGI MILLIY VA HUDUDIY NOMUTANOSIBLIK (1930–1970-YILLAR)

Toshpo‘latov Bekzod Shuxratovich
Abu Rayhon Beruniy universiteti NTM Qashqadaryo manzili, kafedra mudiri, Phd, dotsent

Annotatsiya. *Tezisda 1930–1970-yillarda O‘zbekiston tibbiyot institutlarida shifokorlar tayyorlash jarayoni arxiv hujjatlari va statistik manbalar asosida tahlil qilingan. Shifokorlar sonining tez o‘sishi bitiruvchilar tarkibida mahalliy millat vakillari ulushining pastligi, qabul va taqsimotdagi hududiy nomutanosiblik bilan birga kechgani hamda bu muammoni hal etishga qaratilgan choralar – hududiy qabul kvotalari, tayyorlov kurslari va yangi institutlar ochish – samaradorligi ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tibbiy ta’lim, ToshMI, SamMI, AndMI, shifokor kadrlar, milliy tarkib, hududiy taqsimot, qabul kvotasi, sovet davri.*

Sovet davrida O‘zbekistonda oliy ma’lumotli shifokorlar tayyorlash markazdan rejalashtirilgan tizim asosida tashkil etildi. Qabul rejalari, mutaxassisliklar va bitiruvchilarni taqsimlash ittifoq va respublika idoralari tomonidan belgilandi. Bu tizimning huquqiy asosini VKP(b) Markaziy Qo‘mitasining 1931-yil 1-iyundagi «Tibbiyot kadrlari haqida»gi va SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 1931-yil 5-sentabrdagi qarorlari tashkil etdi [1]. Shu davrda respublikada tibbiy ta’limning institutsional asosi ham shakllandi: O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1930-yil 7-maydagi 80-son qarori bilan Samarqandda O‘zbekiston davlat tibbiyot instituti tashkil etildi [2], 1931-yil 30-martda esa O‘rta Osiyo davlat universitetining tibbiyot fakulteti ajratilib, mustaqil O‘rta Osiyo tibbiyot instituti tuzildi [3]. 1935-yildan u Toshkent tibbiyot instituti (ToshMI) deb ataldi [4].

Tizim shifokorlar sonini qisqa muddatda oshirish imkonini berdi. ToshMIning byudjeti 1934-yildagi 5 377 032 rubldan 1939-yilda 18 mln rublga yetdi, garchi o‘sha paytda kafedralar jihozlar bilan atigi 50 foiz ta’minlangan bo‘lsa-da [5]. Institutga qabul 1938-yildagi 581 nafardan 1949-yilda 2767 nafarga ko‘paydi, 1921–1935-yillarda esa institut 1707 nafar shifokor tayyorladi [6]. Respublika tibbiyot institutlari talabalari soni 1940-yilda 3894 nafar bo‘lgan bo‘lsa, 1950-yilda 4721 nafarga, 1963-yilda 9200 nafarga yetdi [7]. 1930–1947-yillarda birgina Samarqand tibbiyot instituti (SamMI) 1728 nafar shifokor tayyorladi [8]. Keyingi o‘n yilliklarda o‘sish yanada tezlashdi: tibbiyot oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari 1960-yilda 1284 nafar, 1970-yilda 2698 nafar, 1980-yilda 3968 nafar, 1986-yilda 4237 nafarni tashkil etdi [9].

Ammo arxiv hujjatlari miqdoriy o‘sish sifat va tarkib masalalarini o‘z-o‘zidan hal qilmaganini ko‘rsatadi. Birinchi muammo talabalar va bitiruvchilarning milliy tarkibi bilan bog‘liq edi. ToshMIga 1938-yilda qabul qilinganlar orasida mahalliy millat vakillari 105 nafar bo‘lgan bo‘lsa, 1949-yilda ularning soni 780 nafarga yetdi [6]. Biroq bu mutlaq o‘sish

umumiy qabulning ham tez ko‘payishi fonida yuz berdi va ulush jihatidan sezilarli siljish bermadi. 1946-yilda ToshMI bitiruvchilarining atigi 20,3 foizi, SamMI bitiruvchilarining esa 17,7 foizi mahalliy millat vakillari bo‘lgan [10]. Aholining asosiy qismini mahalliy millat tashkil etgan respublikada bu ko‘rsatkich tibbiy xizmat sifatiga, ayniqsa qishloq joylarda shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqotga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Ikkinchi muammo qabulning hududiy tarkibi edi. ToshMIga talabalar asosan Toshkent va yirik shaharlardan qabul qilingan. 1951–1952-o‘quv yilida qabul qilingan 649 nafar talabaning 284 nafari, keyingi o‘quv yilida 528 nafar talabaning 184 nafari Toshkent shahridan bo‘lgan [11]. Boshqacha aytganda, qabul qilinganlarning uchdan biridan ko‘prog‘i bitta shaharga to‘g‘ri kelgan. Shu bilan birga, shifokorlarga eng ko‘p muhtoj bo‘lgan janubiy va g‘arbiy viloyatlar abituriyentlari tanlovda ko‘pincha yutqazgan.

Bu holatni tuzatish uchun 1950-yillar oxiridan viloyatlar kesimida qabul kvotalari joriy etildi. 1958-yilda ToshMIda Toshkent shahri uchun 50, Toshkent viloyati uchun 60, Farg‘ona viloyati uchun 40, Namangan uchun 45, Qashqadaryo uchun 50, Surxondaryo uchun 45, Buxoro uchun 55, Xorazm uchun 45 va Qoraqalpog‘iston ASSR uchun 50 o‘rin ajratildi [12]. Taqsimlash nuqtayi nazaridan ham ma’lum siljish kuzatildi: ToshMI bitiruvchilaridan tayinlangan ish joyiga bormaganlar ulushi 1956-yildagi 13 foizdan 1958-yilda 6,5 foizga, 1961-yilda 4,3 foizga, 1962-yilda 2,7 foizga tushdi [12].

Uchinchi muammo bitiruvchilarni taqsimlashning mintaqaviy yopiqligi bilan bog‘liq. SamMIning 1948-yildagi 177 nafar bitiruvchisidan 51 nafari Samarqand viloyatiga, 25 nafari Qashqadaryoga, 19 nafari Buxoroga, 16 nafari Surxondaryoga, 25 nafari Qoraqalpog‘iston ASSRga, atigi 6 nafari Farg‘ona viloyatiga yuborilgan [8]. Ko‘rinib turibdiki, har bir institut asosan o‘zi joylashgan mintaqani ta’minlagan. 1956-yilda respublikada to‘rtta tibbiyot instituti faoliyat ko‘rsatib, ularda 6366 nafar talaba tahsil olgan [13]. Farg‘ona vodiysi uchun kadrlar muammosi 1955-yilda Andijon davlat tibbiyot instituti (AndMI) ochilgandan keyingina tizimli hal etila boshladi [14].

AndMI tajribasi yangi institutning mahalliy kadrlar tayyorlashdagi rolini yaqqol ko‘rsatadi. 1960–1961-o‘quv yilida institutdagi 1949 nafar talabaning 1195 nafari mahalliy millat vakillari edi [15]. 1962-yilda institutni 265 nafar shifokor tamomlab, ulardan 240 nafari tayinlangan ish joyiga borgan; bitiruvchilar faqat vodiy viloyatlariga emas, Qoraqalpog‘iston ASSR, Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga ham yuborilgan [16]. Qishloq yoshlarining tayyorgarligini oshirish uchun tayyorlov kurslari tashkil etildi: 1964-yilda kursdagi 112 nafar tinglovchining 92 nafari Andijon, 13 nafari Farg‘ona viloyatidan bo‘lib, ularning 45 foizi mahalliy millat vakillari edi [17]. 1964–1965-o‘quv yilida AndMIga 1464 nafar abituriyent hujjat topshirdi (shundan 701 nafari Andijon viloyatidan), reja bo‘yicha 290 o‘rin o‘rniga 414 nafar talaba qabul qilindi. Shifokorlar tanqisligi eng keskin bo‘lgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari uchun 30 tadan alohida o‘rin ajratilib, bu o‘rinlarga 55 nafar talaba qabul qilingan [18].

Shunga qaramay, kvotalar abituriyentlar bilimidagi hududiy farqni bartaraf eta olmadi. 1970–1971-o‘quv yilida ToshMIga 1425 nafar talaba qabul qilingan bo‘lsa, hujjatlarda Namangan, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlaridan kelgan abituriyentlarning tayyorgarligi

past ekani alohida qayd etilgan [19]. Tizimning uzoq muddatli natijasi sovet davri oxiridagi ko‘rsatkichlarda aks etdi: 1990-yilda har 10 ming aholiga to‘g‘ri keladigan shifokorlar soni SSSR bo‘yicha 43 nafarni, O‘zbekistonda esa 33 nafarni tashkil etgan; Qoraqalpog‘iston ASSRda bu ko‘rsatkich 25, Buxoro viloyatida 28, Xorazm viloyatida 29 nafar bo‘lgan [20].

Xulosa qilib aytganda, 1930–1970-yillarda shifokorlar sonining o‘sishi milliy va hududiy nomutanosiblik bilan birga kechdi. Bu nomutanosiblik markaziy rejalashtirishning qabul rejalari va taqsimotni aholi tarkibi hamda hududlar ehtiyojiga yetarli bog‘lamaganining natijasi edi. 1950–1960-yillarda joriy etilgan hududiy kvotalar, tayyorlov kurslari va yangi institutlar ochish muammoni qisman yumshatdi, biroq janubiy va g‘arbiy hududlarning shifokorlar bilan ta’minlanishidagi orqada qolish sovet davrining oxirigacha saqlanib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mo‘minova G.E. O‘zbekistonda tibbiyot va sog‘liqni saqlash: muammo va oqibatlar (1946–1990) (Janubiy viloyatlar misolida): tarix fanlari nomzodi … dis. – Toshkent, 1999. – B. 108.

2. Samarkandskiy gosudarstvennyy meditsinskiy institut imeni akademika I.P. Pavlova (Kratkiy spravochnik). – Tashkent, 1962. – S. 4.

3. O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi (O‘z ITTH MA), 1-fond, 1-ro‘yxat, 285-ish, 1-varaq.

4. 50 let Tashkentskomu gosudarstvennomu meditsinskomu institutu. – Tashkent: Meditsina, 1970. – S. 8.

5. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA), 837-fond, 32-ro‘yxat, 1842-ish, 20–25-varaqlar.

6. O‘zMA, 837-fond, 14-ro‘yxat, 608-ish, 133-varaq.

7. Samarqand viloyati davlat arxivi, 1046-fond, 1-ro‘yxat, 475-ish, 5-varaq.

8. O‘z ITTH MA, 1-fond, 3-ro‘yxat, 1344-ish, 5–36-varaqlar.

9. Narodnoe khozyaystvo Uzbekskoy SSR za 70 let Sovetskoy vlasti: yubileynyy statisticheskiy ezhegodnik. – Tashkent, 1987. – S. 264–271.

10. O‘zMA, 837-fond, 32-ro‘yxat, 7247-ish, 1–3-varaqlar.

11. O‘z ITTH MA, 1-fond, 3-ro‘yxat, 1334-ish, 125-varaq.

12. Djuraev A.D. Tashkentskiy meditsinskiy institut. – Tashkent, 1966. – S. 70–71.

13. Zdravookhranenie v SSSR (statisticheskiy spravochnik). – Moskva: Medgiz, 1957. – S. 153.

14. Andijon viloyati davlat arxivi (AVDA), 650-fond, 1-ro‘yxat, 10-ish, 4-varaq.

15. AVDA, 650-fond, 1-ro‘yxat, 120-ish, 38-varaq.

16. AVDA, 607-fond, 1-ro‘yxat, 385-ish, 15-varaq.

17. AVDA, 650-fond, 1-ro‘yxat, 240-ish, 5-varaq.

18. AVDA, 650-fond, 1-ro‘yxat, 244-ish, 7–20-varaqlar.

19. O‘z ITTH MA, 96-fond, 16-ro‘yxat, 124-ish, 11-varaq.

20. Mo‘minova G.E. Ko‘rsatilgan dissertatsiya. – B. 162–174.